



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Farxodova Sabrina Ruxiddin qizi

O'zDJTU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 1-kurs talabasi
sabrinafarxodova217@gmail.com
(+998)90-878-97-11

Imiy rahbar: Xolboboyeva Aziza Sherboboyevna

f.f.f.d (PhD), O'ZDJTU, ingliz tili amaliy tarjima kafedrsi dotsenti
azizakholboboyeva1611@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176095>

Annotatsiya. Zamonaviy texnologiyalar xorijiy tillarni o'qitish jarayonida katta o'rin tutadi. Ushbu maqolada interaktiv platformalar, sun'iy intellekt, virtual reallik, gamifikatsiya va boshqa innovatsion ta'lim texnologiyalari tahlil qilinadi. Bu usullar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va til o'rganish jarayonini osonlashtirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, innovatsion ta'lim, sun'iy intellekt, gamifikatsiya, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. Современные технологии играют важную роль в обучении иностранным языкам. В данной статье рассматриваются интерактивные платформы, искусственный интеллект, виртуальная реальность, геймификация и другие инновационные образовательные технологии. Эти методы способствуют повышению эффективности учебного процесса и упрощению изучения языка.

Ключевые слова: иностранный язык, инновационное обучение, искусственный интеллект, геймификация, цифровые технологии.

Annotation. Modern technologies play a significant role in foreign language teaching. This article examines interactive platforms, artificial intelligence, virtual reality, gamification, and other innovative educational technologies. These methods enhance the effectiveness of the learning process and facilitate language acquisition.

Keywords: foreign language, innovative education, artificial intelligence, gamification, digital technologies.

Zamonaviy dunyoda xorijiy tillarni o'rganish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. An'anaviy o'qitish usullari zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilib, til o'rganuvchilarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilar o'z ehtiyojlari va o'rganish tezligiga mos keluvchi metodlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

qo'llanilayotgan innovatsion ta'lim texnologiyalari tahlil qilinadi va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni bugungi kunda yuksak baholanayotgani barchamizga sir emas. Zamonaviy dunyoda xorijiy tillarni o'rganish jarayoni an'anaviy yondashuvlardan cheklanib, yangi innovatsion texnologiyalar bilan yanada boyitilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi til o'rganish jarayonini samarali, qulay va tezkor tarzda amalga oshirish imkoniyatini bermoqda. An'anaviy darslik va ma'ruzalar o'rnini interaktiv platformalar, sun'iy intellekt tizimlari, gramifikatsiya, virtual va kengaytirilgan reallik kabi ilg'or texnologiyalar egallamoqda. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy afzalliklaridan biri ularning interaktivligi va individual yondashuv imkoniyatining mavjudligidir. Har bir til o'rganuvchi o'z ehtiyojlariga mos usulni tanlab, o'z tezligida til o'rganishi mumkin. Masalan, raqamli ta'lim platformalari - Duolingo, Memrise, BBC Learning English kabi dasturlar o'quvchilarga mustaqil va qiziqarli shaklda bilim olish imkonini beradi. Ushbu platformalar foydalanuvchining darajasini aniqlaydi va unga mos mashqlarni taklif qiladi. Keling yuqoridagi ta'lim platformalaridan birini tahlil qilib ko'ramiz : Duolingo - bu dunyo miqyosida til o'rganuvchilar tomonidan foydalanib kelinayotgan ilovalardan biri. Mazkur ilovadan istalgan xorijiy tillarni tanlab o'rganish mumkin. Eng asosiysi bu ilovada bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq tillarni o'rganish imkoni mavjud. Duolingo har bitta yangi o'rganilayotgan mavzudan avval o'tgan mavzuni mustahkamlovchi mashqlar taqdim etadi. Bitta bo'limni tugatgandan so'ng esa o'tgan barcha darslar takrorlanadi.

Chet tillarini o'rganishda sun'iy intellektdan ham keng foydalanilmoqda. Sun'iy intellekt til o'rganishda inqilobiy o'zgarishlar qilmoqda. ChatGpt, Google Translate, Replika kabi tizimlar real vaqt rejimida tarjima qilish, matnlarni tahlil qilish, interaktiv muloqot olib borish va til amaliyotini takomillashtirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt asosidagi chat-botlar foydalanuvchilarga haqiqiy hayotiy vaziyatlarda nutq amaliyotini oshirish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda ko'pchilik til o'rganuvchilar sun'iy intellekt hisoblanmish ChatGPTdan foydalanib kelishmoqda. Ushbu AI (Artificial intelligence) til o'rganish bo'yicha juda ham ko'p funksiyalarga ega bo'lib, o'rganilayotgan til bo'yicha barcha darajalarga mos keluvchi ma'lumotlar, darslik manbalari, hattoki o'zi kunlik dars berish xususiyatiga ham ega. Bundan tashqari, ko'pchilik til o'rganuvchilari duch keladigan muammolardan biri - bu o'zlari o'rganayotgan til bo'yicha haqiqiy so'zlovchi (native speaker) topa olishmaydi va aynan shuning uchun ko'pchilikda boshqa qobiliyatlarga (o'qish,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

yo'zish, tinglash) qaraganda gapirish qobiliyati ancha sust bo'ladi. Lekin, ayan ChatGPT orqali to'g'ridan to'g'ri turli mavzularda suhbat qurish mavjudligi uni yanada ommalashtirdi. Shuningdek, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AK) texnologiyalari ham til o'rganish jarayonini jonli va samarali qiladi. VR texnologiyalari yordamida foydalanuvchilar sun'iy muhitda, masalan, do'konda xarid qilish yoki aeroportda yo'nalish kabi holatlarda til amaliyotini o'tkazishi mumkin. Mondly VK kabi platformalar ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilmoqda. Innovatsion yondashuvlar orasida eng qiziqarli va samarali usullardan biri gamifikatsiyadir. O'yin elementlari orqali til o'rganish jarayoni rag'batlantiruvchi va qiziqarli bo'lib boradi. Duolingo, LingQ kabi platformalar ball to'plash, bosqichlarni o'tish va mukofot tizimi orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Bu usul ayniqsa yosh o'rganuvchilar uchun natija eltuvchi usullardan biri sanaladi. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn hamjamiyatlar ham xorijiy tillarni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Facebook, Telegram, WhatsApp, YouTube va Discord kabi platformalar orqali til o'rganuvchilar guruhlariga a'zo bo'lib, real hayotiy suhbatlar olib borishlari mumkin. Ushbu usul til o'rganishning eng tabiiy va samarali shakllaridan biri sanaladi.

Shubhasiz, innovatsion ta'lim texnologiyalarining ba'zi kamchiliklari ham mavjud. Masalan ba'zi raqamli platformalarda jonli muloqot yetishmaydi, VR texnologiyalari esa qimmatligi sababli har doim har doim ham barcha uchun mavjud emas. Shu bilan birga, sun'iy intellekt tizimlari ba'zan insoniy muloqotni to'liq almashtira olmaydi. Bu muammolarni bartaraf etishning bir necha yo'llari mavjud. Jumladan, Jonli suhbatlarga e'tibor qaratish – SI yordamida asosiy bilimlarni o'zlashtirgach, nutq amaliyotini odamlar bilan olib borish muhim. Masalan, Tandem, HelloTalk, italki kabi platformalarda o'z tilini mashq qilayotgan odamlar bilan suhbatlashish mumkin. Til kurslarida yoki klublarda qatnashish – Maxsus til amaliyoti guruhlari va "Speaking Club"larga qo'shilish tavsiya etiladi. Faktlarni tekshirish – SI orqali olingan ma'lumotni boshqa ishonchli manbalar bilan solishtirish kerak. Masalan, tarjimalarni Reverso Context, DeepL, Google Translate orqali taqqoslash va matnlarni til biluvchi insonlardan tekshirtirish mumkin. Yo'zish va nutqni insonlar bilan muhokama qilish – O'rgangan iboralarni o'qituvchi yoki ona tilida so'zlashuvchi bilan tekshirish foydali bo'ladi. Sun'iy intellekt vositalaridan me'yorida foydalanish – Masalan, SI orqali tarjima qilishdan oldin so'z yoki gapni o'z kuchingiz bilan tushunishga harakat qilish kerak. Qo'lda yo'zish va lug'at yuritish – Yangi o'rgangan so'zlarni daftar yoki elektron lug'at yordamida qayd qilib borish,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

ularni o'z jummlaringizda ishlatish samarali bo'ladi. Shu bilan birgalikda innovatsion ta'lim texnologiyalari birgalikda an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirish foydali bo'ladi. Bu ikki ta'limning mujassamligi mustahkam bo'lim ko'nikmasini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini tubdan o'zgartirmoqda. Ular o'quvchilarga individual yondashuv interaktiv muloqot va moslashuvchan o'quv jarayonini taqdim etadi. Kelajakda bu texnologiyalar yanada rivojlanib, til o'rganish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi degan umiddamiz. Til o'rganish va o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish dolzarb va zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Larsen-Freeman, D. & Anderson, M. – Techniques and Principles in Language Teaching - " Xorijiy tillarni o'qitish metodikalari va innovatsion texnologiyalar haqida fundamental asar ".
2. "Journal of Computer-Assisted Language Learning" (CALL Journal) -"Til o'qitishda sun'iy intellekt, VR, AR va boshqa innovatsion texnologiyalar haqida maqolalar".
3. "Educational Technology & Society" Journal - " Ta'lim texnologiyalarining samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar".
4. Chapelle, C. A. – Technology and Second Language Acquisition - " Til o'rganishda sun'iy intellekt, mobil texnologiyalar va VRning o'rni".
5. Richards, J. & Rodgers, T. – Approaches and Methods in Language Teaching - " An'anaviy va innovatsion o'qitish yondashuvlarining o'zaro taqqoslash ".
6. Cambridge English Research – Digital Learning & Language Education - " Til o'rganish jarayonida raqamli texnologiyalar va onlayn platformalar haqida ".